

YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tursunboyev Bunyodjon Rustamjon o'g'li

NamDU o'qituvchisi

Mansurova Gulmira Rafaelovna

NamDU o'qituvchisi

Oila va oilaviy munosabatlar zamonning talab darajasiga aylanmoqda. Oiladagi o'zaro shaxslararo munosabatlar ham alohida ahamoyatga ega. Bugungi kunda shaxslar bilan bøladigan munosabatlarda xulq – atvor tiplari turlicha bøladi. Bunday munosabatlarda namoyon bøluvchi xulq – atvor tiplaridan biri, bu – agressivlik. Bu atama bir qancha muzokaralarga sabab bølmoqda. Endi bu tushunchani har xil talqinlar bilan kòrib chiqamiz. Hozirgi kunda agressivlik har xil tushunchalar bilan bayon qilinmoqda. Oddiy kundalik hayotda agressiya – zòravonlik yoki raqibni yengish uchun vosita sifatida qøllaniladi. Agressiya – kishilar òrtasidagi turli kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq – atvor modellaridan biri bølib, u shunday atamaki, unga oid mulohazalar nafaqat psixologlarni, balki sotsiolog, huquqshunos, pedagog, faylasuf qisqasi, ijtimoiy soha xodimlarining barchasini birdek qiziqtiradi. Agressiya tushunchasining òziga izoh berish qator qiyinchiliklarni tuǵdiradi, chunki, bu termin kòplab xatti – harakat shakllarini òzida qamrab olgan. Odamlar biron – bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani òzi istaganidek qilishni istaydigan, òz góyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yòq muammolar girdobiga òzini giriftor qiladigan inson, deb ta'riflashlari mumkin. Agressiya haqida dastlab har xil nazariya va qarashlar mavjud bølgan. Insonning agressiv xatti – harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U. Makdaugoll, Z. Freyd, G. Marrey va boshqa olimlarning “Inson va hayvonlarda agressiyaning tuǵma instinkti mavjud bøladi “ degan qarashlaridir. Agressiv xulq – atvor haqidagi fikr

– mulohazalar 20 – asr boshlarida yuzaga keldi. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya bølib, unda agressiyaning sababi frustratsiya nazariyasi bilan bogliq ravishda tahlil etilgan. Unga kòra agressivlik frustratsiyaning oqibatidir.

Frustratsiya – bu maqsadga erishishga tòsqinlik qiluvchi barcha narsalardir. Bunday qarash birinchi marta D. Dollard tomonidan ilgari surilgan. Ammo ushbu nuqtai nazar amaliyotda öz tasdigini topmadı. Agressiv xulq – atvorxususidagi ikkinchi nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga kòra, maqsadga yònaltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan tòsiq shaxsda agressiv xatti harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bogliq holda

ifodalanadi. Bu konsepsiya agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi:

- Subyektning öz agressiv xulq – atvorni ijobiy baholashi.
- Frustratsiyaning mavjudligi.
- Affekt yoki stress tipidagi emotsiyal qozg'aliishning kuchliligi.

Keyinchalik R. Kratchfild va N. Livson agressiyaning bir – birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar. Birinchisi, xulq – atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi va unga kora "Agressiya kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq – atvorning har qanday kordinishidir". Ikkinchisi, odamning ichki niyatlari bilan bog'liq bolib, insonni harakatga undovchi kuchlarni organish bilan anglash mumkin bolgan holatlar bilan mushtarakdir, ya'ni, Agressiya boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti harakatdir. Bundan kordinib turibdiki, agressiya kimgadir zarar berish maqsadida bajariladigan harakat yoki ichki xohishlar ustun chiqib, qaysidir inson bilan qasdlashish. Misol qilib aytadigan bolsak, yaqin dostoningizdan yoki biror yaqiningizdan sizga qarshi bajargan, aytgan gaplari uchun sizda unga nisbatan nafrat tuygusi paydo bolishi mumkin. Shu paytda agressiv xatti – harakatlar vujudga keladi va kuchayadi. Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya – boshqalar uchun xavf tukdiruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l – atvor kordinishidir. Vanihoyat, uchinchinuqtai nazar N. Zilman tomonidan bildirib, unga kora agressiya – boshqalarga tan jarohati va jismoniy jarohatlar yetkazish demakdir. L. Berkovits (1968, 1981, 1995) va boshqa tadqiqotchilar bunday stimullar qatoriga qurol kirishini aniqladi. "Qurol nafaqat jinoyat sodir qilishga imkon beradi" deydi u, - balki u jinoyat sodir qilishga undashi mumkin. Barmoq tepkiga talpinadi, shuningdek, tepki ham barmoqqa talpinadi". Bu tushuncha agressiyani emotsiya, motiv yoki korsatma sifatida emas, balki xulq – atvor modeli sifatida kordinishni taqozo etadi. Bu muhim fikr koplab chalkashliklarni tugdirdi. Agressiya termini kop hollarda gazab kabi negativ (salbiy) his – tuygular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ korsatmalar sirasiga kiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar yetkazish bolgan xulq – atvorda albatta muhim rol oynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bola olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart bolib hisoblanmaydi, boshqacha qilib aytganda, ayrim holatlarda agressiya ota sovuqqonlik holatida yuzaga kelishi mumkin bolgani kabi, ota kuchli hayajon holatida ham paydo bolishi mumkin. Shuningdek, aggressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishlari yoki ularni yoqtirishlari umuman shart emas. Kopchilik odamlar ozlari yoqtirgan insonlarga zulm otkazadilar. Hozirda kopchilik tomonidan "Agressiya – boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqiqat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qoygan xulq – atvorning har qanday shakli", degan

tushuncha qabul qilingan. Psixologiyada aggressiv xulq – atvor quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Agressiyaning dardmanlik darajasidagi alomatlar (tutaqib ketish, jahl kelganda özini yøqotib qøyish).

2. Agressiyaning jismoniy oǵzaki va boshqa butun jamiyat uchun nomaqbul axloq qonun – qoidalari bilan bogliq shakllari (odadta, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksilijtimoiy xulq – atvor me'yorlarining mustahkamlanishi bilan bogliq bøladi).

3. Jamiyatda qabul qilingan axloq qonun – qoidalarni yetarlicha ozlashtirilmaganligi yoki xatti – harakatlarini idora etish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni toliq shakllanganligi bilan bogliq agressiyaning turli körinishlari (ta'lim – tarbiya kormaganlik).

4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan aggressivlik haq – huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qiladigan barcha xatti – harakatlar. Agressiv xulq – atvor bu inson bilan vaziyatning ozaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bølib, barcha xossalalar kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Deyarli toliq nomavjudlikdan to yetarlicha rivojlangan aggressivlikkacha namoyon bøladi. Agressiv xulq – atvor asosini aggressivlik motivi tashkil etadi. Agressiv xatti – harakatlar shaxsga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazishi, destruktiv xulq – atvorning yuzaga kelishiga ta'sir korsatishi bilan xarakterlanadi. Bunday xatti – harakatlarni bartaraf etishning psixologik jihatdan qiyin tomoni shundaki, agressiv xatti – harakat qiluvchi shaxs oz xatti – harakatlarini oqlash uchun turli xil dalillarni keltiradi va oz aybini soqit qilishga urinadi. Agressivlikning tez – tez ifodalanishi shaxsning emotsiyal holati bølib, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- Nerv – psixik kasalliklar, inson nerv sistemasining nihoyatda charchaganligi;
- Oiladagi psixologik muhitning nosoglomligi va ota – onalarda pedagogik – psixologik bilimlarning yetishmasligi;
- Shaxsning xarakter, hislati, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Endi agressiv xulq - atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning rolini kòrib chiqadigan bolsak, bulardan birinchi orinda oila tarbiyasi turadi. Shaxs eng avvalo, tarbiyani oiladan oladi. Farzandlarda agressiv xulq – atvor qanday kelib chiqishi mumkin? Bunga bir necha sabablar kiradi. Shunga kora, oilada yaxshi tarbiya kormagan va ota – ona tomonidan farzandga yetarlicha mehr berilmasligi, bolaga jismoniy jazoning kop qollanishi natijasida ularda aggressivlik yuzaga keladi. Bola agressiv xatti – harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbara asoslanib toplaydi:

I. Nosogloq oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota – onalar bilan farzandlar ortasidagi kelishmovchiliklar va fikrlar toqnashuvi natijasida bolalarda aggressivlik vujudga

keladi. Bunday holatlar bòlmasligi uchun oiladagi iliq psixologik muhit katta rol oynaydi.

II. Tengdoshlar guruhi. Bizga ma'lumki, bolalar kòp vaqtini oiladan tashqari kòp holatlarda tengqurlar orasida bòladi va vaqtini ötkazadi. Bola taqlidchan bòlib, öz tengdoshini kuzatgan holda undagi agressiv harakatlarni takrorlashi mumkin va shunday hislatga ega bòlgan bola tengqurlar orasidan siqib chiqarib yuboriladi. Buni natijasida, bola öziga öxshagan agressiv guruhlarga qoshiladi.

III. Ommaviy axborot vositalari. Bugungi kunda kòplab muammolarga sababchi omillardan biri bu – OAV lar sanaladi. Hozirda efir orqali uzatilayotgan har xil jangari va qòrqinchli filmlar orqali bolalarda agressiv xulq – atvor kuchaymoqda. Bundan tashqari, internet orqali özining yoshiga va psixologik holatiga mos kelmaydigan har xil videoroliklar kòrishi va agressivlikni targib etuvchi, shakllantiruvchi turlicha öyinlariga öynash orqali özlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bòlmoqdalar. Statistik ma'lumotlarga kora har yili AQSHda uch mingdan besh mingga yaqin bola ota – onalarning shafqatsiz munosabatlari qurboni bòlmoqda. Shuningdek 16% bola aka – opalarining jismoniy jazo ya'ni kaltaklash, savalash bilan jazolanmoqdalar. Ögay ota – onalar tomonidan esa har yili bolalarga nisbatan qilinyotgan jinoyatlar 400 tani tashkil etmoqda. Buni natijasida, ögay ota – onalar farzandlarning ölimiga sabab bòlishmoqda. Agressiv bolalarning paydo bòlishidagi yana bir sabab oilalarning töliq yoki notöliq ekanlidigidir. Tadqiqotchilardan biri bòlgan F.Getting qotillar kòp holatda töliq bòlmagan oilalardan chiqqanligi aniqlangan. Bunday oilalarda oila a'zolarining bir – birining his – tuyğulariga befarqlik, ota – onalar tomonidan farzandlarni qòllab quvvatlamaslik, ularning taqdiri bilan qiziqmaslik natijasida mana shunday agressiv bolalar kelib chiqishi mumkin. Har qanday jazolar va dòq – pòpisalar bola uchun yaxshilikka olib kelmaydi. Ularni agressiv qilib qøyishi mumkin. Ota – onalarning örtasidagi janjallar va farzandlarning kaltaklanishi ham bola psixikasiga katta ta'sir kòrsatadi. Keyinchalik bola özini shu janjallarga loyiqdek deb öylaydi. Yillar ötib, oilada kuzatilgan har xil urushlarni bola öz yangi qurgan oilasida ham takrorlashi mumkin. Buni oldini olish uchun avvalo, ota – onalar bolaga yoshligidan qaysi harakatlarni qilish yoki qilmasligini tushuntirishi, agar mumkin bòlmagan xatti – harakatni amalga oshirsa, ma'lum bir jazo turini masalan, uni jim – jit xonada özini qisqa vaqtga yolgiz qoldirishi mumkin. Shunda bolada me'yordan chetga chiqadigan xulq – atvor raqbatlantirilmasligini va qabul qilinmasligini, u özini tògri tutishga örganmaguniga qadar, boshqalar bilan muloqot qila olmasligini anglaydi. Ota – ona qòllayotgan har qanday jazo turini bolaga nima uchun bunday qilganini tushuntirishi lozim. Bolalarda agressiv xulq – atvorning shakllanishida yana bir sabablardan biri uning tengdoshlar bilan munosabati hisoblanadi. Hammamiz bilamizki, bola oiladan ajragan paytda tengqurlari bilan bòladi. Maktabda kelib chiqadigan har xil janjallar natijasida bolalar tengdoshlari bilan urushishi mumkin.

Agressiv bolalarni tengdoshlari yoqtirmaydilar va kòp hollarda ularga "yoqimsiz" degan yorliq ilib qoyadilar. I. S. Kon va A. Kupershmidt agressivlik va ijtimoiy mavqe örtasidagi bogliqliknin bir – biri bilan tanish va bir – birini tanimaydigan bolalar misolida organib chiqadilar. Tadqiqotchilar 4 – sinf bolalarining sinfdoshlarining fikriga kora ijtimoiy mavqeni organib chiqib, bir – birini taniydiyan (sinfdoshlar) va bir – birini tanimaydigan (barchasi har xil maktabdan) o'gil bolalarga darsdan song komanda oyinda ishtirok etishlarini taklif qildilar. Boshqa tadqiqotlar natijalarida ham aytilganidek, tengdoshlari tomonidan "yoqimsiz" deb tan olingen bolalar tengdoshlari bilan bolgan muloqotda verbal (doq – popisa, sokinish) va jismoniy (tepish, urish) agressiyaga xos ijtimoiy xulq – atvorni namoyish qildilar va bu bilan boshqalarning nafratini uygodtdilar. Demak, bola ozi bilgan va bilmagan bolalar bilan oynashidan qat'iy nazar, uning ijtimoiy statusi sinfda qanday bolsa, oyin guruhida ham shundayligicha qolgan. Agressivlikni o'gil bolalarda kopincha jismoniy, qizlarda esa verbal turi uchraydi. Olimlarning aytishicha, agressivlikning me'yordan ortishi natijasida shaxsda asab tizimining buzilishi, nerv – psixik kasalliklar, kommunikativ malakalarning pasayishi, oz – oziga adekvat baho bera olmaslik, ishonch hissining yeqolishi, oz – ozini boshqara olmaslik, xavotirlanish darajasining ortishi, frustratsiya, depressiya, stress kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Agressivlikni vujudga kelmasligi uchun uni har tomonlama himoya qilish lozim. Shoir Lev Tolstoy ta'kidlaganidek: «G'azabda boshlangan ish, oxiri uyat bilan tugaydi». Shuning uchun bolaga e'tibor bersak, har tomonlama qollab – quvvatlasak, avvalo oylab biror ishni amalga oshirishini ta'kidlasak, bizning yutugimiz mana shu boliadi. Xulosa ornida aytish mumkinki, har qanday holatning sababi bolgani kabi agressivlikning ham oz sabablari boliishi mumkin. Biz bolalardagi agressivliklar ijtimoiy muhitga, oilaga va tengqurlariga bogliq ekanligini bilib oldik. Mana shu bogliqliklarni bilgan holatda, bolalardagi agressivlikni oldini olish chora – tadbirlarini korish, shu bilan bir qatorda psixologlar bilan ham ishslash maqsadga muvofiq boliadi. Shu jihatdan agressiyaga qarshi birgalikdagi kurash, bizlarni muvaffaqiyat sari yetaklaydi!

Foydalilanilgan adabiyotlar royxati:

1. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. T.: 2009
2. V. Karimova, O. Xayitov. Shaxsnинг ijtimoiylashuv masalasi. T.:2007
3. N. Ismoilova, D. Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. T.: 2013
4. M. Axmedova Pedagogik konfliktologiya" T.: 2016
5. Mirvaliyeva, M. (2022). OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIVLIGI MUAMMOSI. FRANCE International Scientific-Online Conference:. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.651889>
6. Badritdinova, M. B., & G'aniyeva, N. O. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA IJTIMOIY QO'RQUV HOLATLARINING PSIXOPROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(2), 307-309.
7. Мансурова Г. Р. ОСОБЕННОСТИ Я-КОНЦЕПЦИИ ЛИЧНОСТИ ПРОЯВЛЯЮЩИЕСЯ В ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИИ //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.